TURKISTON MUSIQA MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

БУДУЩИЕ ЗАДАЧИ ПО РАЗВИТИЮ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ТУРКИСТАНА

FUTURE TASKS OF ENHANCING TURKISTAN'S MUSICAL CULTURE

Farg‘ona davlat universiteti

2-kurs magistri

Soliyeva Maftunaxon

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda XX asr boshlarida Farg‘ona-Marg‘ilon ashulachilik maktabining yirik namoyandasi Mamadbobo Sattorovning ilk ijodiy davri, uning o‘n to‘rt yoshidan boshlab Marg‘ilon va uning atroflaridagi xalq yig‘inlarida faol ishtirok etishi hamda repertuaridan joy olgan “Jamshid”, “Xunob”, “Terma” kabi an’anaviy asarlarning badiiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada san’atkorning Madumar hofiz, Hamraqul qori, Madalibek va To‘ychi hofiz singari davrning yetuk ustoz xonandalari bilan hamnafaslikda xalq sayillari va madaniy ko‘rgazmalarda qatnashishi taxlil qilingan. Tadqiqotda ustoz-shogird an’analarining an’anaviy ijrochilik muhitini rivojlantirish hamda yosh iste’dodlarni kamolga yetkazishdagi pedagogik va ijtimoiy-madaniy ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

АННОТАТЦИЯ

Данное исследование охватывает ранний творческий период, Мамадбобо Сатторова, видного представителя Ферганско-Маргиланской школы пения начала XX века, его активное участие в фольклорных собраниях в Маргилане и его окрестностях с четырнадцатилетнего возраста, а также художественные особенности традиционных произведений, таких как «Джамшид», «Хуноб» и «Терма», входивших в его репертуар. В статье также анализируется участие артиста в фольклорных фестивалях и культурных выставках вместе с такими выдающимися певцами того времени, как Мадумар

Хафиз, Хамракуль Кори, Мадалибек и Тойчи Хафиз. Исследование научно обосновывает педагогическое и социокультурное значение традиции «учитель-ученик» в развитии традиционной исполнительской среды и воспитании молодых талантов.

ABSTRACT

This study covers the early creative period of Mamadbobo Sattorov, a prominent representative of the Fergana-Margilan singing school at the beginning of the 20th century, his active participation in folk gatherings in Margilan and its environs from the age of fourteen, and the artistic features of traditional works such as "Jamshid", "Khunob", and "Terma" that were part of his repertoire. The article also analyzes the artist's participation in folk festivals and cultural exhibitions in tandem with such outstanding master singers of the time as Madumar Hafiz, Hamrakul Qori, Madalibek, and Toychi Hafiz. The study scientifically substantiates the pedagogical and socio-cultural significance of the master-student tradition in developing the traditional performing environment and bringing young talents to maturity.

Kalit so‘zlar: Mamadbobo Sattorov, Farg‘ona-Marg‘ilon ashulachilik maktabi, xalq sayillari, ustoz-shogird an’anasi, an’anaviy musiqa, “Jamshid”, Madumar hofiz, musiqiy meros.

Keywords: Mamadbobo Sattorov, Fergana-Margilan singing school, folk festivals, master-student tradition, traditional music, "Jamshid", Madumar Hafiz, musical heritage.

Ключевые слова: Мамадбобо Сатторов, Ферганско-Маргиланская школа пения, народные фестивали, традиция учитель-ученик, традиционная музыка, «Джамшид», Мадумар Хафиз, музыкальное наследие.

KIRISH

O‘zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o‘zining qadimiy ilm–fani, adabiyoti, san’ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo‘shgan buyuk millat ekanligi

butun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etiladi, tan olinadi. Darhaqiqat, jamiyatimizda madaniyatni, ma’rifatni, san’atni rivojlantirish, yosh avlod tarbiyasida uning rolini, o‘rni va ahamiyatini yuksaltirish ularning ongu-ruhi rivojlanishiga, takomillashuviga, komil inson bo‘lib voyaga yetishiga zamin bo‘ladi. Joriy yil O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ikkinchi bor o‘tkazilgan Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilishidagi nutqida “Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo‘lgan maqom san’ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi.[1]Turkiston musiqa madaniyatini yuksaltirishning istiqboldagi vazifalari — bu nafaqat milliy o‘zlikni anglash, balki Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy madaniy merosini dunyoga tanitishning muhim omili hisoblanadi.

Nomoddiy madaniy merosni raqamlashtirish va global integratsiyalash haqida.

Turkiston xalqlarining musiqa merosi (maqom, shashmaqom, dostonchilik, xalq kuylari) asrlar davomida "ustoz-shogird" an’anasi orqali og‘zaki tarzda o‘tib kelgan. Istiqboldagi eng birinchi vazifa — bu merosni yo‘qotib qo‘ymaslik va globallashtirishdir. Hududdagi barcha noyob ijrolar, ovoz yozuvlari va qadimiy notalarni yagona multimedia platformasiga joylash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI VA METODOLOGIYA

Turkiston musiqa namunalari Tojikiston, O‘zbekiston va boshqa qardosh xalqlar talqinida Spotify, Apple Music, YouTube kabi xalqaro maydonlarda tizimli ravishda targ‘ib qilinishi kerak. YUNESKO bilan hamkorlikham mavjud hisoblanadi. Mintaqaviy musiqa uslublarini YUNESKOning Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritishni yanada kengaytirish.

Musiqa ta’limi tizimini zamon talablariga moslashtirish muhim masalalardan hisoblangan. Musiqa madaniyatini yuksaltirish poydevori ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq. Bu yerda faqatgina klassik ijrochilikni o‘rgatish kifoya

qilmaydi.

Konservatiya va musiqa maktablarida an’anaviy cholg‘ular (tanbur, dutor, g‘ijjak va h.k.) ijrochiligini zamonaviy raqamli musiqa dasturlari (DAW) va aranjirovka san’ati bilan integratsiya qilish. Milliy musiqashunoslikni rivojlantirishmasalalari ham bo‘lgan. Turkiston musiqa tarixi, uning falsafasi va nazariyasini chuqur tadqiq etuvchi yosh olimlar avlodini tarbiyalash.

Xorijlik mutaxassislar bilan tajriba almashish jarayoni ham kiritilgan. Xalqaro mahorat darslari (master-classes) va qo‘shma ta’lim dasturlarini ham yo‘lga qo‘yishganlar.

Etno-musiqa va zamon trendlari (Milliy brend yaratish) haqida ma’lumot beradigan bo ‘lsam. An’anaviy musiqani yoshlar auditoriyasiga yetkazish uchun uni zamon tilida "so‘zlatish" kerak. Istiqboldagi vazifalardan biri — milliy musiqa asosida yangi trendlarni yaratish. Etno-jaz, etno-rok va folk-pop yo‘nalishlari: Maqom va xalq qo‘shiqlari unsurlarini zamonaviy jahon musiqa janrlari bilan uyg‘unlashtirish (masalan, Koreyaning K-pop fenomeni kabi milliy kodlarga asoslangan madaniy brend yaratish. Kino va geyming (o‘yinlar) industriyasi uchun musiqa: Tarixiy va zamonaviy filmlar, kompyuter o‘yinlari uchun aynan Turkiston milliy cholg‘ulari ishtirokidagi saundtreklar yozish. Bu musiqaning tijoriy jozibadorligini oshiradi.

Milliy musiqaning sifati cholg‘u asboblarining yangrashiga bog‘liq. Qadimiy asboblarni yasash texnologiyasini saqlab qolish va rivojlantirish zarur.

Muhim vazifa: Milliy cholg‘u asboblarini yasash maktablarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. Bunda faqat an’anaviy usullar emas, balki akustika ilmining zamonaviy yutuqlaridan ham foydalanish, cholg‘ularning xalqaro standartlarga mos kelishini ta’minlash lozim.

Mintaqaviy madaniy diplomatiya va festivallar

Turkiston tushunchasi keng madaniy hududni anglatadi. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirish lozim.

Qo‘shma festivallar: "Sharq taronalari", "Maqom" festivali kabi yirik loyihalarni

mintaqaviy darajada yanada kengaytirish va ularni Jahon musiqa bozori (World Music Market) brendiga aylantirish.

Madaniy karvonlar: Mintaqa san’atkorlarining dunyo bo‘ylab qo‘shma gastrol turlarini tashkil etish.

NATIJA VA MUHOKAMA

Turkiston musiqa madaniyatini yuksaltirishning istiqboldagi modeli "Qadriyatga sodiqlik va innovatsiyaga ochiqlik" tamoyiliga asoslanishi kerak. Musiqa faqatgina to‘y-tomosha xizmati yoki muzey eksponati emas, balki davlatning xalqaro maydondonagi "yumshoq kuchi" (Soft power) va iqtisodiy daromad keltiruvchi kreativ industriyaga aylanishi shart.

Mamadbobo Sattorov o‘n to‘rt yoshidan Marg‘ilon atrofidagi yig‘inlarda o‘z ashulalari bilan qatnaşa boshlaydi. Shu yillarda u “Jamshid”, “Xunob”, “Terma” qo‘shiqlarini aytib yuradi.

Mamadbobo Sattorov 1900-yillardan boshlab Farg‘ona vodiysida tanila boshlaydi. Madumar hofiz, Hamraqul qori, Madalibek, To‘ychi hofiz singari san’atkorlar bilan birga ko‘rgazmalarda, sayillarda, har turli yig‘inlarda qatnasha boshlaydi.[2]

Og‘zaki an’anadagi professional musiqasida maqomlar asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, turkum shakliga ega fasl (vokal cholg‘u asar) janri keng tarqalgan. Sozlardan nay, tambur, ud, qonun keng qo‘llaniladi. Diniy musiqa janrlaridan ilohiya, sharqiya, mavlaviya kabi aytim shakllari mavjud. Bastakorlardan Marokiy, Ismoildada afandi, Hofiz Po‘st, Sulton Salim III (Usmoniylar hukmdori), Kvntemir o‘g‘li va boshqa mashhur.Ko‘p ovozli kompozitorlik musiqa Turkiyada respublika barpo etilgandan keyin qaror topdi. Ko‘p ovozli musiqaning xalq musiqasiga, milliy ohanglarga asoslanishi borasida ko‘p izlanishlar olib borgan Ahmad Adnan Saygun musiqani jahon miqyosida tanitishda katta xizmat qildi. Kompozitorlik musiqaning keng yoyilishida “Prezident simfonik orkestri” ning roli katta. Bu orkestr AQSH, Yevropa va Janubiy Koreyada konsertlar bergan. Istanbul, Izmir, Antaliya va Chukurova davlat simfonik orkestrlari ham faoliyat yuritadi.[3] Ulardan tashqari

Bilkent simfonik orkestri, Borusan Istanbul filarmoniyasi orkestri, Oqbank orkestri singari xususiy jamoalar bor. Xalq musiqasi yo‘lida ijod qilayotgan Narimon Oltintog‘ Tufakchi, Ahmad G‘ozi Oyxon, Musa Ero‘g‘li, Belqis Oqqala xalq o‘rtasida mashhur. 1960-yillardan rok musiqa yo‘nalishlariga qiziqish paydo bo‘ldi. Hozirgi paytda popmusiqasida Ibrohim Tatlisas, Sezan Aqsu, Nilufar, Teoman, jazda Karam Go‘rsev, Ilxan Ershaxin, Nukhet Ruajan kabi san’atkorlar mashhur. Bastakor, musiqachilar Istanbul (1923), Anqara (1936), Izmir (1951) konservatoriyalarida tayyorlanadi. Ankara operetta teatri (1928), Opera teatri (1950) va Istanbul opera teatri (1960)ning ochilishi musiqa san’ati rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. 1948-yilda Istanbulda ochilgan akademik balet maktabi (1950-yildan Anqarada) milliy kadrlar tayyorlaydi. Davlat opera va balet bosh direktsiyasi tomonidan 1998-yildan buyon har yili xalqaro festivallar, Istanbulda xalqaro musiqa festivallari o‘tkazib kelinadi.[4]

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Mamadbobo Sattorovning o‘n to‘rt yoshidanoq Farg‘ona vodiysi, xususan, Marg‘ilon musiqiy muhitiga kirib kelishi va yosh bo‘lishiga qaramay “Jamshid”, “Xunob”, “Terma” kabi murakkab asarlarni ijro etishi uning tug‘ma iste’dodidan dalolat beradi. Xalq sayillari, ko‘rgazmalar va yig‘inlar u uchun o‘ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tagan. San’atkorning Madumar hofiz, Hamraqul qori, To‘ychi hofiz kabi davrning yirik namoyandalari bilan bir safda faoliyat ko‘rsatishi XX asr boshlarida Farg‘ona-Marg‘ilon ashulachilik maktabida "ustoz-shogird" an’analarining naqadar kuchli bo‘lganligini va bu muhit uning yetuk hofiz bo‘lib shakllanishida bosh omil bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizboyev S. MILLIY MA’NAVIYATIMIZNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING O‘RNI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Ilmiy maqola.

2. Rajabov, I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.

3. Matyoqubov, O. Maqomat. – Toshkent: Musiqa, 2004.

4. Yunusov, R. O‘zbek xalq musiqa ijodi (Ilmiy-uslubiy tavsiyalar). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, 2000.

5. Hoshimov, R. Farg‘ona vodiysi ashula va maqom ijrochiligi tarixi. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2012.

6. Ashrafiy, M. Musiqa madaniyati tarixidan lavhalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.

7. Akbarov, I. Musiqa lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997